



## TARIX O'QITISH METODIKASI FANINING RIVOJLANISHI

**Abdullayev Afzalbek**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

[+998935320429](tel:+998935320429)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarix o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti hamda ushbu fanga ilmiy bilimlarning mustaqil bir tarmog'i sifatida qaralishi haqida so'z yuritiladi. Tarix o'qitish metodikasi ilmiy-pedagogik fan bo'lib, u talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, ularga o'tmish tariximiz umumbashariy qadriyatlarimiz, avlod-ajdodlarimiz haqida puxta bilim berish, mustaqil vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishni ko'zda tutadi va o'z bilimlarini berib boradi. Quyida biz shu kabi ma'lumotlar bilan tanishamiz.*

*Kalit so'zlar: metodika, tarix, o'qitish jarayoni, uslublar, interfaol usullar.*

**Kirish.** Tarix o'qitish metodikasi – bu tarix fanini o'qitish jarayonida foydalaniladigan uslublar, metodlar va yondashuvlarning jamlanmasidir. U o'qituvchilarga o'quvchilarni tarixiy bilimlar bilan ta'minlash, ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, tarixiy voqealarni tahlil qilish va ularga oid tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Tarix o'qitish metodikasi o'z ichiga turli pedagogik usullarni oladi:

An'anaviy metodlar (masalan, ma'ruza, darslikdan foydalanish),

Interfaol metodlar (muammo yechish, guruhli ishlash, tarixiy simulyatsiyalar),



Tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlar (voqealarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish),

Integratsiyalashgan metodlar (boshqa fanlar bilan birgalikda tarixni o'rgatish).

Tarix o'qitish metodikasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar, pedagogik va psixologik yondashuvlarning o'zgarishi, shuningdek, ta'lim tizimidagi yangiliklar hisoblanadi. Bugungi kunda metodikalar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning tarixiy tafakkurini va shaxsiy nuqtai nazarini rivojlantirishga qaratilgan. Tarixiy voqea-hodisalarni ilmiy, xolis o'rganishning aniq yo'lini O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1998-yil 26-iyunda mamlakatimiz tarixchi olimlari, shoir va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda bu haqda o'z fikrlarini aytib o'tdi va bir qancha ko'rsatmalarni berdi. "Tarix o'qitish metodikasi" kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-mafkuraviy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tilgan.<sup>1</sup>

**Asosiy qism.** "Tarix o'qitish metodikasi" fanining maqsadini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy saviyasi muttasil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil bo'lishini hamda ijodiy faoliyatiga tayyorlanishlarini nazarda tutish kerak.<sup>2</sup> Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Maktabda tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining obyektiv sur'atda amal qiladigan o'z qonuniyatlari borligini bilamiz. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal

<sup>1</sup> Nodira Xasanova, Pardaxol Normamatova "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI" 2024.

<sup>2</sup> Islom Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT YENGILMAS KUCH" Toshkent "MA'NAVIYAT" 2008.



qilish, ulardan oqilona foydalanish maktabda tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Mustaqil jamiyatimizning hozirgi bosqichida tarix o'qitishni yanada takomillashtirib borish, o'qitish jarayonini, uning obyektiv ravishda amal qiluvchi qonuniyalarini aniq va mukammal bilib olish, bu qonuniyatlardan mustaqil Vatanimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishi, undan istiqloq yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish zarur va ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanishda biz ularga maslakhdosha bo'lishimiz kerak deb o'ylayman.<sup>3</sup>

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining 1997-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida alohida qayd etib o'tganlaridek "darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat ekanligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz" degan fikrlarni juda ko'p ta'kidlab o'tadi.<sup>4</sup>

Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida qayd etib o'tganlaridek, bugungi kungacha O'zbekistonimiz umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari gumanitar fakultetlari uchun tarixdan davr talabi darajasida yaratilgan, ilmiy-metodik jihatdan sifatli darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalari mavjud emas. Odatda, har bir fanda bo'lganidek, tarix fanida ham ma'lum o'quv yurtlarida o'quv rejasiga asoslangan ilmiy-metodologik va uslubiy-didaktik talablarni hisobga olgan dastur tayyorlanadi. Mustaqillik sharofati bilan Respublikamiz umumta'lim maktablarida o'qitiladigan tarix

<sup>3</sup> T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "UNIVERSITET" 2002.

<sup>4</sup> Ziyovutdin Ilhomov "TARIX FANI METODOLOGIYASI" o'quv qo'llanma.



fanining asosiy mazmuni ikki yoʻnalishda: Jahon tarixi va Oʻzbekiston tarixi bosqichlarini oʻrganishni tashkil etadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tarixiy hodisalar va voqealarni oʻrganishga qoʻyilgan talablar barcha sinf oʻquvchilarining yoshi, bilim saviyasi, ruhiy xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi darajalariga mos boʻlgan darslik yaratish kerakligini taqozo etadi.<sup>5</sup>

### **Natijalar va muhokama.**

Tarix oʻqitish jarayoni ikki yoʻl bilan oʻrganiladi. Birinchisi, kuzatish metodi boʻlib, bu metoddan foydalanganda turli xildagi oʻquv-metodik adabiyotlar, oʻquvchilarning yozma ishlari, referatlar, ularning javoblari yozilgan stenogrammalar va magnitofon yozuvlari, oʻqitishga berilgan baho va chiqarilgan xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, oʻquvchilarning bilimi va koʻnikmalari oʻrganiladi va baho beriladi.

Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, oʻqituvchi tarix oʻqitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi va uni tabiiy ravishda kuzatadi, oʻrganadi, tahlil qiladi.

Ikkinchisi tadqiqot metodi. Oʻqituvchi oʻqitish jarayonini oʻzi xohlaganicha uyushtiradi. Unga baʼzi oʻzgarishlar kiritadi, natijasini tekshirib koʻradi.<sup>6</sup>

Tarix oʻqitish metodikasining rivojlanish jarayoni, asosan, tarix fanining oʻqitilishiga oid yondashuvlarning va pedagogik jarayonlarning oʻzgarishi bilan bogʻliq. Dastlab, tarixni oʻqitish anʼanaviy tarzda, yaʼni oʻqituvchi tomonidan maʼlumotlar berish va talabalar tomonidan eslab qolish asosida amalga oshirilgan. Keyinchalik, taʼlim metodlari zamonaviy pedagogik yondashuvlarga, masalan,

<sup>5</sup> S.A.Toshtemirova, F.Sh.Ilmurodova, M. D. Sa'dullayeva "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Toshkent "YANGI CHIRCHIQ PRINTS" 2023.

<sup>6</sup> S.V.Yo'ldoshev "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Farg'ona 2022.



interfaol usullar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangi metodikalarga o'zgardi.<sup>7</sup>

**Xulosa** qilib aytganda, tarix o'qitish metodikasining rivojlanish jarayoni o'qituvchilarning metodik imkoniyatlarini kengaytirish, talabalar faoliyatini oshirish, ularning tarixiy tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda tarix o'qitish metodikasi, ko'proq interfaol va talabalar markazli usullarni o'z ichiga olgan holda, tarixiy bilimlarni nafaqat yodlash, balki tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodira Xasanova, Pardaxol Normamatova "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI" 2024.
2. Islom Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT YENGILMAS KUCH" Toshkent "MA'NAVIYAT" 2008.
3. T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent 'UNIVERSITET 2002.
4. Ziyovutdin Ilhomov "TARIX FANI METODOLOGIYASI o'quv qo'llanma.
5. S.A. Toshtemirova, F.Sh.Ilmurodova, M. D. Sa'dullayeva "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Toshkent "YANGI CHIRCHIQ PRINTS" 2023.
6. S.V.Yo'ldoshev "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Farg'ona 2022.
7. Bo'ri Ziyomammedov, Mamasharif Tojiyev. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ZAMONAVIY O'ZBEK MILLIY MODELII" Toshkent "LIDER PRESS" 2009.

---

<sup>7</sup> Bo'ri Ziyomammedov, Mamasharif Tojiyev. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ZAMONAVIY O'ZBEK MILLIY MODELII" Toshkent "LIDER PRESS" 2009.